

**UZUM YETISHTIRISHDA O'G'ITLASH TALABLARI
VA AHAMIYATI**

S.Komilov

Toshkent davlat agrar universiteti tyutori, t.f.d., professor

B.Xudayarov - "TIQXMMI"MTU

M.Olisheva - Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya. Uzum yetishtirishda amalga oshiriladigan agrotexnik talablar, hususan, o'gitlash jarayonini to'g'ri amalga oshirishning hosildorlikdagi ahamiyati keltirilgan. Berilgan ma'lumotlar ko'p yillik tajribalar asosida olingan.

Kalit so'zlar. Uzumchilik, o'g'itlash, mineral o'g'it, organik o'g'it, ozuqa.

Kirish. Dunyo aholisining ortib borishi insoniyat ehtiyojining ham ortishiga sabab bo'ladi. Asosan oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj yuqori ko'rsatgichlarda ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarning hajmini oshirishni talab qiladi. Dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda ham qishloq xo'jaligi hususan bog'dorchilik hamda uzum yetishtirish sohalarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada muhim tashabbuslar va hukumat qarorlari ham qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagи "2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-260-sonli qarorida sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan. Qarorning 2-bandida uzum yetishtirish bo'yicha xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyatlaridan kelib chiqib, uzumchilikni milliy madaniyat sifatida rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilash vazifasi qo'yilgan bo'lib, bundan shuni ko'rsak bo'ladiki asrlar davomida uzum yetishtirishda dehqonlarimiz qo'llagan usullar samarali hisoblanadi. Qadimdan uzum yetishtirishda turli xil usullar qo'llanilib kelingan va hozirgi kungacha eng foydalilari saqlanib qolingan.

Shuningdek qarorda yangi yerkarni o'zlashtirish bilan bir qatorda mavjud tokzorlardan unumli foydalanish, hosildorlikni oshirish ham muhim yo'nalish deb belgilandi. Albatta bu juda muhim, chunki bog'dorchilik uchun ajratiladigan yer maydonlari kam, sababi uzumchilik ma'lum iqlim sharoitlarini talab qiladi. Hosildorlikni oshirish uchun agrotexnik talablarni to'g'ri amalga oshirish lozim. Agrtexnik talablar ichida muhim ahamiyatga egalaridan biri o'g'itlash jarayoni hisoblanadi.

Yuqori sifatli katta hosil olish uchun uzum ko'chati yetarli va balansga ega

o'g'itlarga ehtiyoj seziladi. Asosiy oziq moddalar makroelementlar - azot, fosfor, kaliy. Mezoelementlar - magniy, kaltsiy, temir, oltingugurt ham muhim hayotiy ahamiyatga ega. Lekin ular nisbatan kamroq miqdorda talab qilinadi. Mikroelementlar - bor, marganets, mis, rux, molibdenlar esa undan ham kamroq miqdorda talab qilinadi, ammo novdalarning yaxshi o'sishi va yuqori hosil olish uchun bu elementlarning boshqa oziq moddalar kabi ahamaiyati katta. Makroelementlar tuproqqa kuzda asosiy o'g'it sifatida va yozda esa ildiz bilan oziqlantirish uchun qo'lllaniladi. Mezo- va makroelementlar vegetatsiya davrida barg qoplamasi orqali o'simlikni oziqlantiradi. Kerakli maydonagi tuproqning holati haqida tasavvurga ega bo'lish uchun uni kimyoviy tahlil qilish kerak.

Tok ko'p yillik o'simlik bo'lib bir necha yillar davomida o'sib, tuproqdan zaruriy oziq moddalarini o'zlashtiradi. Akademik M.Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining taqdim etgan ma'lumotlariga ko'ra, 1 hektar tokzordan 200-300 sentner hosil olish uchun, bir yil davomida ko'chatlarning: 90-105 kg. azot, 40-50 kg. fosfor hamda 200-300 kg. kaliy moddalarini o'zlashtirishi zarurligi keltirilgan. Oziq, moddalarining tuproqdan ko'p miqdorda chiqib ketishiga barglar, g'ujumlar, kesilgan novdalar sabab bo'ladi. Tok oziq moddalarining asosiy qismini novdalari o'sishni boshlashidan, to hosil pishguniga qadar o'zlashtiradi. Shuning uchun tok o'simligi o'g'itga talabchan bo'ladi. Tok bir yillik o'sish jarayonida tuproq hamda havodan anorganik moddalarini o'zlashtirib, ularni organik moddalgarda aylantiradi va o'zining vegetativ va reproduktiv organlarini shakllantirishga sarflaydi. Ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, tok ko'chati uchun 70 xildan ortiq oziq moddalar zarur bo'lar ekan. Ammo, ushbu oziq moddalar o'simlik tomonidan turli miqdorda o'zlashtiriladi. Asosiy oziq moddalarini uglerod, kislorod, vodorod, azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, temir, oltingugurt, bor, marganes, molibden, mis, rux, kobalt, yod kabi mikroelementlar tashkil etadi. Tok ham boshqa o'simliklar kabi oziq moddalarini, asosan ildizi hamda bargi orqali o'zlashtiradi. S.G.Bondarenko o'rganishlariga binoan, tok ko'chatining quruq massasining taxminan 90% ini uglerod va kislorod (deyarli teng miqdorda), 5%ini vodorod, qolgan 5%ini esa mineral elementlar tashkil etadi. Tokning kerakli me'yor darajada oziqlanishi uchun quyidagi sharoitlar bo'lishi talab etiladi:

- a) tuproq namligi yetarli bo'lishi,
- b) tuproqda so'rvuchi ildizlarning ko'p bo'lishi,
- v) ildizlarning kislorod bilan ta'minlaganligi,
- g) oziq moddalarining mavjudligi.

Ayniqsa, azot, fosfor, kaliy kabi asosiy mineral moddalarining tok o'simligi hayotida muhim rol o'ynaydi.

Tokzorlarni oziqlantirishda quyidagi talablarni yaxshi bilish muhim ahamiyatga ega;

- tokning o‘g‘itga bo‘lgan talabining me’yori;
 - har bir o‘g‘itning vazifasi bor va uni bilmoq;
 - tok ko’chatining o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi uning o‘sish va rivojlanish jarayonlarida fiziologik davrlarga bog‘liq ekanligini inobatga olish;
 - o‘g‘itlash vaqt – tok ko’chatining yoshi, navning tezpisharligi, qaysi fazada rivojlanayotganligi , qachon va qancha miqdorda o‘g‘it berish kerakligi;
- Mineral o‘g‘itlarni qo’llashning taxminiy normalari va muddatlari quyidagi jadvalda berilgan

Vegetatsiya bosqichi	Muddati	O‘g‘it miqdori, s/ga		
		donador superfosfat	ammoniy nitrat	kaliy tuzi
Ochilishdan oldin	15— 25/IV	1,5—2,5	1,0—1,5	—
Gullash boshlanishidan 10- 15 kun oldin	5—15/VI	1,5—2,0	0,5—1,0	0,5—1,0
Mevalar pishishidan oldin	15— 20/VIII	1,5—2,0	—	1,0—1,5
Jami		4,5—6,5	1,5—2,5	1,5—2,5

Yuqori hosil olish uchun yuqoridagi jadvalda ko’rsatilgan me’yorlar asosida o‘g‘itlash tavsiya etiladi. Jadvaldan ko’rishimiz mumkinki mineral o‘gitlarni 3 xil davrga umumiyligi miqdorni deyarli teng taqsimlagan holda berish tavsiya etilgan. Ya’ni uzum ko’chati yil bo’yi o’sish va hosil pishirish jarayonida oziq moddalarini sarflaydi. Sarflangan moddalar o’rnini to’ldirish talab qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uzum yetishtirishda agrotexnik talablarni hususan, o‘g‘itlash jarayonini to’g‘ri va o‘z vaqtida amalga oshirish hosildorlikni sifatini hamda hajmini oshirishga asos bo’ladi. Shuning uchun ham ushbu jarayonlarni o‘g‘ri tashkil etish choralarini ko’rish lozim.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagи “2023 — 2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-260-sonli qarori;
2. “Удобрение виноградников и уход за почвой”, Л. Я. Лебедева
3. Qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxasislari va oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik, R.Yunusov, M.L.Ikramova, “Durdon” nashriyoti Buxoro – 2023; tths://uz.m.wikipedia.org;
5. 2017-2021-yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi